

XIX ASRNING OXIRLARI XX ASRNING BOSHLARIDA SURXON VOHASIDAGI SAVDO YO‘LLARI, ICHKI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI

Abduraimova Charos Nodir qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Qudratov Namoz Tojimurodovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Surxon vohasida savdo ishlarining qanday tashkil etilganligi, kimlar bilan savdo olib borganligi, bu savdoda Surxon vohasining ulishi qanchaligi hamda qanday mahsulotlarning bozori chaqqon bo‘lganligi haqidagi masalalar yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Hisor, G‘uzor, Samarqand, Qarshi, Termiz, Boysun, paxta, rubl, kopeyka, tanga.*

XIX asr boshlarida Sharqiy Buxoro bilan G‘arbiy Buxoro o‘rtasida olib boriladigan savdo-sotiq ishlari bevosita Surxon vohasi orqali olib borilardi. Bu o‘rinda Sharqiy Buxoro va G‘arbiy Buxoro atamalariga ham birozgina to‘xtalib o‘tsak, XIX asr oxirlarida Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo mulklari kirgan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib, amirlik tarkibiga bu hududlardan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent, Zarafshon daryosining quyi oqimi va janubiy Turkmanistonning katta qismi ham kirgan. So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi tasarrufida 44 ta beklik bo‘lganligi e‘tirof etiladi. Buxoro amirligining sharqiy hududlarida joylashgan beklklarga nisbatan “Sharqiy Buxoro beklklari” atamasi qo‘llaniladi. Sharqiy Buxoro beklklariga hozirgi Surxon vohasining uch bekligi, Tojikistondagi olti beklik kiradi. Bu hududda Boysun, Denov, Qabadiyon, Qo‘rg‘ontepa, Ko‘lob, Baljuvon, Hisor, Sarijo‘y, Sherobod beklklari mavjud. Sharqiy Buxoro beklklarida ham ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar Buxoroning boshqa beklklari bilan bir xil edi. G‘arbiy Buxoro beklklariga esa Buxoro amirligining g‘arbiy qismida joylashgan hududlar kirgan.

XIX asrning oxirlarida XX asr boshlarida Surxon vohasida savdo-sotiq ishlari rivojlanishi sust bo‘lib, o‘zaro ichki kurashlar hamda natural xo‘jalikning hukmronligi shahar va qishloqlarning iqtisodiy yuksalishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Voha aholisi sharqda qo‘shni beklklar- Hisor, Qoratepa, Qabadiyon, Qorategin, Darboz, Sho‘g‘nan va shu bilan birgalikda tog‘li yo‘llar orqali Qo‘qon xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini olib borishgan. Bu hududlarga asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va savdo mollari olib borib sotishgan. Tashqi savdoda va Amudaryo bo‘ylab yuk tashishda Pattakesar, Termiz, Yorgoh, Cho‘chqaguzar, Qorakamar kechuvlari juda muhim bo‘lgan. XIX asrning o‘rtalaridan boshlab markaziy hokimiyatning kuchayishi bilan Buxoro amirligining viloyatlari o‘rtasida savdo-sotiq ishlari ancha jonlandi. Surxon vohasi savdo aloqalari asosan G‘arbiy Buxoro beklklari bilan olib borilgan. Qo‘qon xonligiga olib boruvchi yo‘llarning asosiy qismi tog‘li dovonlardan o‘tgan sababli bu hududlar bilan savdo aloqalari olib borish noqulayliklar tug‘dirgan. Darband va Boysun shahri orqali Surxon vohasiga ko‘plab qulay yo‘l tarmoqlari o‘tgan. Mazkur yo‘llar orqali Hindiston va

Afg'onistonga ham karvon qatnovi yo'lga qo'yilgan. XIX asr o'rtalarida savdo yo'llari uch yo'nalishda olib borilgan:

1. Samarqand-Shahrisabz-Yakkabog'-Toshqo'rg'on-Shotrud dovoni-Sarijo'y-Yurchi-Denov-Termiz-Balx yo'nalishi;
2. Samarqand-Jom-Chiyaliquduq-G'uzor-Oqrabot-Temir darvoza-Termiz-Balx yo'nalishi;
3. Samarqand-Shaxrisabz-Kaltaminor dovoni-Oqrabot- Temir darvoza-Termiz-Balx yo'nalishi.

Vohada savdo-sotiq ishlarini olib borishda mahalliy yo'llarning ahamiyati katta bo'lgan. Bu yo'llar shahar va qishloqlarni bir-biri bilan bog'lashda katta o'rin tutgan. Mahalliy savdo yo'llarining yo'nalishi mana shu ketma-ketlikda shakllangan: Boysundan Sariqamish-Inkabod-Pulhokim-Qilichbog'-Dashtig'oz-Xalqayor-Uloqo'ynar-Daganadan o'tib, Mirshodi orqali Denovga borilgan. Yuqoridagilarni umumlashtirib, vohadagi savdo yo'llari ko'p tarmoqli va murakkab tizimga ega bo'lgan, deyish mumkin. Tog' va tog'oldi yo'llarida asosan ot va eshak kabi ulovlardan foydalanilgan bo'lsa, vohaning tekislik orqali o'tgan yo'llarida aravalardan ham foydalanilgan.

Voha hududida bozorlar shahar markazkarida, aholi gavjum hududlarda yoki savdo aloqalari olib boriladigan qulay yo'llar kesishgan joylarda joylashgan. N.Mayev Sherobod bekligidagi tog'li Ko'hitang qishlog'ida katta bozor bo'lganligi, bu bozorda Amudaryodan G'uzorgacha bo'lgan oraliqdagi qishloqlarda yashovchi aholi o'zlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollarini mana shu bozorda sotganligini ta'kidlab o'tadi. Bu bozor haftaning chorshanba va shanba kunlari faoliyat ko'rsatgan. Sangardak, Changloq, Sherjon va boshqa tog'li hududlardagi qishloqlarning aholisi yong'oq, bodom, pista va qurutilgan mevalarni paxtaga almashtirish uchun asosan Sherobod bozoriga olib borishgan. Olma, o'rik va boshqa mevalar Yurchi hamda Pattakesar bozorlariga olib borilgan. Savdogarlar Yurchidan spool butumlarni va Pattakesardan fabrika mahsulotlarini olib qaytishgan. Boysunda qandolatchilik mahsulotlari tayyorlanib, Aholi bu mahsulotlarni Kichik o'radaryo va Ko'hitang daryolari bo'yidagi ko'chmanchi yashovchi aholiga olib borib sotishgan.

Qandolatchilik mahsulotlaridan xolva va mayiz Turkiston hamda Rossiya hududlariga ham olib borib sotilgan. Bozorlardagi narx-navo mavsumga qarab o'zgarib turgan: Yoz o'rtalarida 1 botmon bug'doy 15 tanga, guruch 22 tanga, arpa 8 tanga, 100 bog' beda 7-8 tanga bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Vohaning shimoliy qismidagi bozorlardan janubiy qismidagi bozor mahsulotlarining narxi farq qilgan. Sababi janubiy qism bozorlariga Xiva, Rossiya, Afg'oniston va Hindiston kabi davlatlardan ham mahsulot kelishi natijasida janubiy bozorlardagi mahsulotlar hajmi shimoliy bozordagilarga nisbatan ancha ko'p bo'lgan. Temiryo'l tarmog'ining qurilishi natijasida Buxoro amirligi hududiga Rossiya mahsulotlarining kirib kelishi ancha ko'paydi. Buxoro amirligi hududida ham mahsulot ixtisoslashuvi shakllangan: Buxoro shaxri qorako'l teri, choy va rus mahsulotlariga, G'uzor, Qarshi, Sherobod don va chorva mahsulotlariga istisoslashgan. Voha hududlarida yuklarni tashish uchun bir oy davomida 500 tagacha, qishda esa 1000 tagacha tuya yollash mumkin bo'lgan. Tuyalarda yuklarni tashish narxlari har xil bo'lgan: Sheroboddan Qarshigacha 3 rubl 40 kopeykadan 4 rublgacha, Kalifgacha 3 rubldan 3 rubl 50 kopeykagacha, G'uzorgacha 2 rubl 60 kopyrkadan 3 rublgacha, Amudaryo kechuvidan Cho'chqaguzargacha 1 rubl 60 kopeykadan 1 rubl 90 kopeykagacha kira haqi olingan.

Rus savdogar-tadbirkorlari voha bozorlarini muntazam tarzda o'rganib borishgan, Ularning

bozorlarni o'rganishdan asosiy maqsadi favqulodda voqealar ro'y bergan vaqtda bir kunda bu bozorlardan qancha mahsulot to'plash mumkinligi va bir yillik mahsulot savdo aylanmasini hisoblab chiqish edi. Shuningdek bozorlarga yaqin joylarda qancha miqdorda askar joylashtirish ikmoni borligini aniqlash ham edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, vohanig tekislik qismidagi ichki bozorlar anchayin kengaydi. Bu bozorlarda o'zbek, tojik, turkman, rus, arab, afg'on, hind va boshqa millat vakillari ham savdo qilganliklari haqida ma'lumotlar qayd etib o'tilgan. Buzozorlarda turli millat vakillarining savdo qilishi bozorlardagi mahsulotlarning soni ham xilma xilligidan dalolat beradi.

Paxta sotib olish hamda uni rossiyaga jo'natish maqsadida Buxoro amirligi hududida paxta bilan bo'g'liq savdo markazlari va bir qancha savdo jamiyatlari tuzila boshlagan. Jumladan, vohada "Sharqiy Buxoro jamiyati", "Rossiya jamiyati" va "Kavkaz Merkurij jamiyati" tashkil qilingan bo'lib, ular joylardan ko'plab miqdorda paxta sotib olib Rossiyaga jo'natishgan. Endu don mahsulotlariga to'xtaladigan bo'lsak, Sharqiy buxoroda yetishtiriladigan don mahsulotlarining asosiy qismi Termizda to'planardi. Bu yerda g'allaning narxi Buxoro amirligining g'arbiy hududlariga qaraganda ancha arzon bo'lgan. Shu sababli har yili avgust oylarida Termizga G'arbiy Buxoro va Xiva xonligi savdogarlari kelib g'alla xarid qilishgan. Termiz shahrida to'plangan g'allani savdogarlar Amudaryo bo'ylab qayiqlarda Karki, Chorjo'y shaharlari va Xiva xonligiga ham olib borishganlar. Bu davrda Termiz oraqli boshqa davlatlarga mahsulot chiqarish hajmi ham o'sgan. 1903-yili shahar orqali 23 mln rubllik turli mahsulotlar chetga chiqarilgan. Shundan 2 mln rublligi Rossiyaga, 500 ming rublligi Afg'onistonga, 70 ming rubllik mahsulot Eron, Hindiston va boshqa davlatlarga eksport qilingan. Vohada chorva savdosi ham ancha ommaviy hisoblangan. Chorva mollari aholi ehtiyojini to'laqonli qondirganligi bois, ortiqcha qismi Qarshi, G'uzor, Kalif, Karki shaharlariga olib borib sotilgan. Sharqiy va G'arbiy Buxoro amirligi o'rtasidagi bojxona xizmati Denov bekligidagi Mirshodi degan hududda joylashgan. Voha shaharlari tashqi savdo aloqalari asosan Rossiya, Afg'oniston va Hindiston davrlari bilan olib borilgan. Hindiston va Afg'oniston bilan savdo aloqalari Termiz va Sherobod shaharlari orqali olib borilgan. Hindistondan voha hududiga ko'proq choy mahsulotlari olib kelingan. Rossiyadan esa shakar, metall buyumlar ko'p olib kelingan. Voha hududida kuzatuv-tadqiqot ishlari olib borgan rus harbiylari Surxon vohasining Afg'oniston va Hindiston bilan olib borgan savdo aloqalari haqida Rossiyaga ma'lumot yetkazib turganlar.

Surxon vohasi hududidagi savdo ishlari hamda karvon yo'llarining faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsada, bu sohada ham bir qancha kamchiliklar va hokimiyat tomonidan bartaraf etilmagan to'siqlar mavjud. Ya'nikim biz yuqorida aytib o'tganinizdek savdo-sotiq ishlari natura bilan cheklanib qolgan bu hududlardagi savdo ishlarida hech qanday ishlab chiqarish mahsulotlarini uchratmadik. Uchratganlarimiz ham import mahsulotlari edi. Bunday holatning vujudga kelishiga sabab mamlakatda diniy muttasiblikning kuchliligi hamda mamlakatning rivojlangan davlatlar bilan savdo munosabatlarining yo'lga qo'yilmaganligidir. Bundan tashqari savdo ishlari bilan shug'ullanuvchi savdogarlar bir davlat hududidan chiqmagan holda savdo-sotiq ishlarini olib borsalarda, bir beklidandan boshqasiga o'tganlaridan soliq to'lashlari shart edi. Soliq ishlarini olib boruvchi bojxona xizmati ham shakllantirilgan edi. Bu ham savdo ishlarining rivoji yo'lidagi bir to'siq desak mubolag'a bo'lmaydi. Savdo ishlari davlat tomonidan yaxshi yo'lga qo'yilishi tashqi diplomatiyaning ham bir ko'rinishi hisoblanadi. Bu esa davlatlararo savdo yo'llarining xavfsizligining kafolat manbayidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.Ochilov “ Surxon vohasi beklıklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar” Toshkent-2008
2. S.Aliqulov “Mang’itlar davrida Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi” Toshkent-2014
3. Mayev “ Очерки Бухарского ханства”
4. E.Qobilov “ Sharqiy Buxoro tarixi” Toshkent-2021
5. Qudratov, N., & Isayev, O. (2024). DENOV BOZORI FAOLIYATI 1946-1961-YILLAR. Talqin va tadqiqotlar.
6. Abduraimova, C. (2024). XIX ASRNING OXIRI XX ASRNING BOSHLARIDA SHARQIY BUXORO BEKLIKLARIDA SOLIQ TIZIMI. Talqin va tadqiqotlar, (8 (45)).
7. Qudratov, N. (2024). SURXON VOHASI BEKLIKLARINING ICHKI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI. " Science Shine" International scientific journal, 15(1).
8. Tojimurodovich, Q. N. (2023). Administrative Structure and Management System of the Becks in Surkhan Oasis. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(10), 87-92.
9. Tojimurodovich, Q. N. (2022). BUXORO AMIRLIGIDA SURXON VOHASI BEKLIKLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(9), 36-39.
10. Erkinovich, T. J. (2023). REFLECTION OF THE NEED FOR RECONSTRUCTION POLICY, SOCIAL SITUATION AND POLITICAL CHANGES IN THE “SHARQ YULDUZI” MAGAZINE. European Journal of Humanities and Social Sciences, 47.